




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınyly shıyg'armalarındag'ı ruhani yndestik pen ag'artushylyq ideyalar	629
40	O'g'ıloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

TOHIR MALIKNING “MURDALAR GAPIRMAYDILAR” QISSASIDA YETIMLIK
MUAMMOSI MA’NAVIY TANAZZUL SIFATIDA

ORPHANHOOD AS A FORM OF MORAL DECLINE IN TOHIR MALIK’S NOVELLA
THE DEAD DO NOT SPEAK

Munisa ESHMATOVA,

ToshDO‘TAU talabasi

Ilmiy rahbar: F. F. B. F. D., Rasulova Sarvinoz

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PXJU1190

Annotation. *This article examines the problem of orphanhood in Tohir Malik’s novella Murdalar gapirmaydilar as not only a psychological consequence of parental loss but also a manifestation of moral degradation in society. The study interprets the fate of orphaned children as a reflection of individuals who become victims of social injustice, spiritual decline, and criminal influences. The novella, recognized as a notable detective work in Uzbek literature, addresses pressing social issues such as human trafficking, exploitation of vulnerable women and children, greed, lust, and the pursuit of material wealth. Through its characters and events, the work reveals how moral corruption, selfishness, and the erosion of ethical values lead individuals toward crime, humiliation, and destruction. The article argues that the social and moral problems depicted in the novella remain relevant across different historical periods.*

Key words: *greed, moral degradation, wealth, poverty, betrayal, crime, conscience, death, corpses, orphanhood, oppression, humiliation, justice, truth.*

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida qissa janrining takomilida Tohir Malikning asarlari ham alohida salmoqli hissa qo‘shganligi bilan ajralib turadi. Yozuvchi qissalarining mavzu ko‘lami, zamonaviyligi bilan o‘zbek adabiyotiga dedektiv, fantastik va ma’rifiy asarlari orqali yangi yo‘nalishni olib kirdi. Shu bilan birga har bir ijodkorda uning boshqalarga o‘xshamaydigan bir muhim xususiyat borki, bu uning uslubidir. Adabiyotshunos N. Shukurov individual uslub haqida shunday yozadi: “Individual uslub ijodkorning voqelikni o‘zicha idrok etishi, voqeahodisalarni o‘ziga xos obrazlar va ifoda tasvir vositalari bilan aks ettirish...” [Shukurov, 1978: 7]. Xuddi shuningdek, Tohir Malik ham o‘z uslubiga ega yozuvchi hisoblanadi. Bu kabi jihat uning asarlari tilida, obrazlar portretini chizishda va turli tasvir va ifoda vositalaridan foydalanishida ko‘zga tashlanadi [Rasulova, 2025:149]. Xususan, adib ijodida dedektiv janrning eng yuksak, mukammal namunasi hisoblangan “Murdalar gapirmaydilar” qissasida yozuvchi qahramonlarga boshdan oyoq portret chizmaydi. Faqat qahramonlarning qiyofasi, xarakteriga xos ayrim jihatlarni, detallarni berish bilan kifoyalangan: “Istarali bu yigitning pokiza odam ekanini yuzidan yog‘ilib turgan nur oshkor etib turardi” [Tohir Malik, 2004: 8].

Tohir Malik so‘z qo‘llashda mahoratli, juda ehtiyotkor ijodkor bo‘lib, voqelikni ma’lum bir vaziyatdan kelib chiqqan holda ifodalaydi, so‘zlarni topib, o‘rnida ishlata oladi. Adibning asarlarini mutolaa qilar ekansiz, bevosita asardagi har bir qahramon his-tuyg‘ularida yashaganday bo‘lasiz. Shu jumladan, yozuvchining yuqoridagi qissasi har o‘tgan va bugungi davr kitobxonining ham qalbidan o‘rin egallashga ulgurdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buning boisi shuki, qissa hozirgi zamonaviy hayotni yoritishga bag‘ishlangan. Asarda ilgari surilgan g‘oya esa jamiyatda har qachon dolzarbligi va muhim ahamiyatini yo‘qotmasligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Tohir Malik ushbu “Murdalar gapirmaydilar” qissasida nafs zalolatga va jinoyatga boshlovchi xavfli illat ekanligini adashgan bandalar, yetimlar taqdiri orqali ochib beradi. Bu sinovli dunyoda hamma ham adashadi, xato qiladi, chunki xom sut emgan bandalarmiz. Hamd va mukammallik Allohga xosdir. Shuning uchun ham nafsimiz otashini so‘ndirib, yomonliklardan qaytarishda Yaratganga panoh berishini so‘rab, iltijo qilamiz. Zero, “Kimni Alloh hidoyat qilsa, uni adashtiruvchi yo‘q. Kimni Alloh adashtirsa, uni hidoyat qiluvchi yo‘qdir” [Tohir Malik, 2019:



233]. Shuningdek, muallif inson nafsini har tarbiyalab borishini ta’kidlaydi hamda shahvat(nafs) daryosida halok bo’lmaslikka, uning quli emas, aksincha, hukmdori bo’lishga da’vat etadi. Muallif nafsni insonga ham dushman, ham tarbiyachi ekanligini ta’kidlaydi. Inson agar uni boshqara olsa, to’g’ri yo’lga boshlashini, mabodo, nafsini yengmas ekan, u mana shu nafs, moddiy dunyoga berilishi, ochko’zligi uni mahv etib, balo-yu, ofatlarga duchor bo’lishi muqarrarligini badiiy jihatdan asoslaydi “Dunyo – o’tkinchi mehmonxonadir. Dunyodagi eng ulug’ boylik – dunyoga berilmaslikdir. Dunyoni afzal bilgan kishi zillatga, xorlikka hukm etilib, halok bo’lur”. [Tohir Malik, 2019: 234]. Ushbu jumalardan angashimiz mumkinki, adib yetimlik muammosini faqat ota-onadan mahrumlik yoki ularning birlarini yo’qotishdagi psixologik zarba emas, balki moddiy dunyoni hamma narsadan ustun qo’yish, qadriyatlarining zaiflashuvi, tarbiyaviy hayotning buzilishi, jamiyatdagi axloqiy buzilish oqibatida kelib chiqadigan zararli qusurlardan biri nafs, mol-dunyoga, ortiqcha ho’yu-havaslarga berilish va halol va haromning farqiga bormaydigan kimsalarning o’z nafslari yo’lida yetimlarni qurbon qilishi va natijada nimalarni yo’qotganligi kabi muammolarni ma’naviy tanazzulga undovchi xavfli illat sifatida tasvirlangan. Xuddi shu jihatdan mazkur asarda jamiyatdagi adolatsizlik, nopoklik, faxsh, nafs, jinoyat va tubanlikka yetaklovchi bir qancha omillar inson taqdiri misolida bayon etilgan.

Tohir Malikning “Murdalar gapirmaydilar” asari o’zbek adabiyotida qissa janrining mukammal namunalaridan bir bo’lib, unda nafs jinoyatga yetaklovchi asosiy sabablardan biri sifatida talqin etiladi. Qissada sodir etilayotgan har bir jinoyatni muallif shunchaki tasodifiy hodisa sifatida emas, balki inson nafsini o’ziga bo’ysundira olmasligi, uning jilovini bo’sh qo’yishi, g’arazgo’ylik, xudbinlik, hasad, mansabparastlik hamda boylikka ruju qo’yish oqibatidagi fojea ekanligini asosli tarzda izohlaydi. Bundan tashqari yozuvchi nafsni faqat jinoyat qilgan odamgagina xos xususiyat sifatida chegaralab qo’ymaydi. Balki haqiqiy qotilni, jinoyatchi kim ekanini bilsa-da, ammo uni oshkor etmasdan haqiqatni yashirib, o’zining tichligini, manfaatini va obro’-etiborini o’ylab, atayin sukut saqlagan odamlar ham aslida o’z nafsining quli ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, atrofda bo’layotgan jinoyatlarga ko’z yumib, beparvo qarash, kuni kelib, avvalo, o’sha jinoyat ochilmay, yashirin holda qolishiga turtki bo’ladi. Shu bilan birga nafs ichki qo’rquv va loqaydlik bilan birikib, eng katta tuzatib bo’lmas ma’naviy tanazzulga aylanishi mumkin degan hayotiy haqiqatni asar tarkibiga singdirib yuborgan.

Xususan, asar boshlanmasida quyidagi jumlar keltiriladi: “...Nafsning kelajagi – zulmdir, zulmning kelajagi esa – xorlikdir. Badan pokligi badanga, ruh pokligi ruhga hayot bag’ishlar...” Muallif shior qilib bergan ushbu haqiqatni bayon qilishda oyatlardan dalil keltiradiki, ana o’sha nafs yo’lida dunyoga berilib, boylikka nisbatan ishtahasi hakalak otgan, nafslari bilan g’afolatda qolib, shahvat daryosida halok bo’lganlar mazkur illatlarning quli bo’lib qoldilar: “...Ana o’shalar hidoyatga zalolatni sotib olgandirlar. Va tijoratlari foyda keltirmadi, hamda hidoyat topganlardan bo’lmadilar. Ular misoli bir o’t yoquvchiga o’xshaydilar. Olov endi atrofini yoritganida Olloh yorug’likni ketkazib, ularni hech narsani ko’rmaydigan holda zulmatlarda qoldiradi. Ular kar, soqov va ko’rdirlar. Bas, ular hidoyatga qaytmaslar...” [Tohir Malik, 2019: 232-233]. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, inson botinida “nafs” degan ma’naviy bo’shliq mavjud bo’lib, u insonning o’z “men”ligi sanaladi. Ya’ni “Tarbiya ko’rmagan, past saviyadagi nafs yomonlikka moyil va shahvatga ko’p rag’batlidir: yemoq, ichmoq, uxlamok, aysh-u ishrat qilmoq, kayf-u safoga ko’p berilmoq, boshqalar tomonidan maqtalmoq, zo’ravonlik qilmoq va hokazolarni istaydi” [Alouddin Mansur, 2004: 145]. Mazkur illatlar nafs egasini asir qilib, o’z xohish-istaklari ortidan sudraydi. Agar nafs ushbu illatlarga egaligicha qolsa, kuchayib borsa, uni isloh etish, to’g’ri yo’lga solish qiyin bo’lib qoladi. Insonning boshiga har turli kutilmagan kasofatlar zararlar o’sha nafsdan kelaveradi, uni ma’naviy hamda moddiy xatarlarga duchor qiladi, natijada vaqti kelsa behayo qiladi, vaqti kelsa o’g’irlik qilishga majbur qiladi, qotillikka – odam o’ldirishga ham olib boradi, oila-ro’zg’orlarni buzdirib, o’zgalarga zulm ham qildiradi, umrbod qamoqqa mahkum etib, oxiri mozorgacha olib keladi.

Yozuvchi qissani, aynan, “Murdalar gapirmaydilar” deb nomlashida ham o’ziga xos ramziylik mujassamdir. Asarda nafs bandalari dastidan jabrlanuvchi va ayni damda o’zi ham o’sha



nafsining iskanjasida hayoti barbod bo‘lgan yetim obraz Nafisa jismonan o‘likdir. Bilamizki, o‘liklar gapira olmaydilar. Chunki u o‘zining boshiga kelgan savdolarda o‘zini oqlay olamaydi, haqiqatni fosh etishga ham o‘jiz. Qissada qabriston, sukunat olami, oh-u faryodlar o‘lkasi sifatida ta’riflanadi. Ammo bu o‘tkinchi dunyodagi odamlar, afsuski, bu faryodlarni eshitmasligi, bilmasligi va o‘sha mayyitlarning o‘tmishidan, afsuski, ibrat olmasliklarini qayd etadi: “Agar tinglay olganimizda edi... “Murdalar gapirmaydilar deymiz...” Bizga shunday tuyular? Balki ular gapirarlar, biz eshitmaymiz? Eshitsak-mi, edi...” [Tohir Malik, 2019: 234]. “murdalar gapirmaydilar”, degan fikr xayolimizga kelmagan bo‘lardi, degan mushohadalarni sharhlab o‘tadi. Shuningdek, ular aslida gapirarlar, faqat biz buni eshitmaymiz, ya’ni muallif aytmoqchiki, agar ularning nola-yu hasrat, afsusga to‘la fig‘onlarini tinglaganimizda quloqlarimiz qomatga kelib, g‘aflatdan so‘qir bo‘lgan ko‘zlarimiz, ehtimol, ochilardi degan mazmunni ifodalaydi. Darhaqiqat, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) shunday marhamat qilganlar: “Jonim qo‘lida bo‘lgan zotga – Allohga qasamki, sizlar mening so‘zlarimni ulardan ya’ni o‘liklardan yaxshiroq anglaguvchi emassizlar, faqat ular javob qila olmaydilar, xolos...” [Tohir Malik, 2004; 8]. Garchi murdalar “tilsiz” bo‘lsa-da, nafsni deb sodir etilgan jinoyat hech qachon, o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib, izsiz ketmaydi. Jinoyat qurboni bo‘lgan inson, ayni paytda, o‘ziga nisbatan qilingan zulmlarni, so‘zlab bera olmasa ham haqiqat aslo yashirin, sirlicicha qolmaydi. Hayotning, vaqtning o‘zi ularning ortida qolgan dalillar orqali adolatsizlikni fosh etish mumkinligi haqidagi jiddiy masalalarni hayotiy saboq sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga, barchani ogohlikka chorlaydi.

Shuningdek, muallif asarning ana shunday mazmunini bosh qahramonlardan Nafisa obrazining taqdiri orqali jinoyat dunyosi va tubanlik, nopoklik, nafs balosi, zulm, xorlik, dunyoga ko‘ngil bog‘lash, vaqtida g‘aflatdan uyg‘onib, o‘zini tiya bilmaslik insonni badnom qilib, shafqatsizlarcha halok etishini qayd etadi. So‘ngra bu hirsiy sifatlar insonni ma’naviy jihatdan inqirozga olib keladigan eng kechirilmas gunoh, inson maylidagi illat va qusur ekanligini oxirida anglab yetib, nadomat chekkanlar afsus qilishga endi jidayam kech qolganliklarini bayon etadi. Va bu kabi ayanchli ijtimoiy omillar insonni ma’naviy jihatdan kambag‘al qilib, har qanday jinoyatchilikka qo‘l urib hayotiga fojeali tarzda xotima yasashiga sabab bo‘lishini ifoda etadi. Asar voqealari davomida insondagi ma’naviy-axloqiy bo‘shliqni qattiq tanqid qiladi.

“Murdalar gapirmaydilar” qissasining muqaddimasi quyidagi jumlar bilan boshlanadi: “Nafisani qarg‘adilar. – O‘ynashi bilan yotgan ekan, sharmanda... ..sharmanda ...sharmanda. – So‘yib o‘ldiribdi. Xudoning o‘zi jazolabdio‘zi jazolabdi...jazolabdi...Nafisaga achindilar: – Tirnoqqa zor o‘tdi, bechora... ..bechora...bechora...” [Tohir Malik, 2019: 235-340]. Ushbu xalqona gap-so‘zlar orqali yozuvchi qissaning qanday mavzusda ekanligi, asosiy maqsadi, asar qahramonlari, voqealar mobaynida bo‘lishi mumkin bo‘lgan jarayonlarga kitobxonni ruhan tayyorlaydi. Ma’lumki, Tohir Malikning ayniqsa yetim bolalarga mehri, e’tibori va munosabati ayriqcha. U qissadagi yondashuvlariga ko‘ra jamiyat sharmanda, buzuq, yengiltak ayol sifatida qoralagan yetimni muallif xalq ta’riflaganday emas, balki mazluma, jabrlangan, chirkin muhitning qurboni bolgan yetim personaj sifatida talqin etadi. Shu bilan birga, hayot va o‘lim, jamiyatdagi shafqatsizlik, befarqlik adolatsizlik, ikkiyuzlamachilik, odamlar orasidagi ko‘r-ko‘rona hukm kabi umumiy masalalar haqida so‘z yuritadi. Shuningdek, asardagi keyingi kutilayotgan holatlar uchun kalit vazifasini o‘taydi. Asardagi bosh obrazlardan biri Nafisadir. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bu qahramon qissaning boshlanmasida barcha boshiga tushgan ko‘rgiliklarga yolg‘iz o‘zi aybdor – gunohkor ayol sifatida gavdalanadi. Aslida muallif Nafisaga suiqasd qilinganligini misol keltirish orqali uning o‘limidan-da, eng mudish fojea aslida jamiyatning ma’nan o‘lib bo‘lganligida ekanligini izohlaydi. Chunki, Nafisa voqealar markazida shunchaki yetim, nomusi poymol bo‘lgan obraz emas, balki uning taqdiriga bevarq bo‘lgan har bir jamiyat vakilining bo‘ynidagi lan’at va gunoh hisoblanadi. Yetimning fojeasida jamiyatning eng katta aybi shundaki, odamlar bunday paytda bir chorsiz yetimi himoya qilish o‘rniga hatto sababini ham surishtirmay, uni sharmanda, benomus, suyug‘oyoq ayol sifatida unga yana-da malomat toshlarini otishadi. Zero, biz yetim bolalar taqdirini jamiyatning vijdoni deb ataymiz., chhunki qayerdagi, yetimga zum qilinib, or-nomusi, insoniy tuygulari oyogosti qilindi-mi, demak, bunday jamiyatda



yashaydiganlar “tirik murdalar” hisoblanadi. Shuningdek, o‘quvchini shoshilinch ravishda xulosa chiqarmaslikka, asar zahiridan asl haqiqatni topib, uni har tomonlama tahlil qilishga undaydi.

Mazkur qissasining muhim jihatlaridan biri, adibning o‘ziga xos pozitsiyasi hisoblanadi. Ushbu jihatni asaridagi qahramoniga bo‘lgan munosabatlarida, voqea-hodisalardan kelib chiqib bildirgan shaxsiy qarashlaridan tushunib olamiz. Xususan, Nafisani onasidan ayrilib, otasining qo‘lida qolgan ijtimoiy yetim ekanligini qissa orasida aytib o‘tadi. Bilamizki, ota-onani yoki ulardan birini yo‘qotish farzand, ayniqsa, uning kelajagida og‘ir va alamli, uning yuragida butun umrga bitmas yara qoldiradigan qismat sanaladi. Ota-ona bizga doim yoshligimizdan tayanch, himoyachi, mehri, muhabbati bilan parvona bo‘luvchi timsol bo‘ladi, ularni yo‘qotish esa tog‘dek suyanchimiz qulagandek tasavvur uyg‘otadi. Xalqimizda “Hamma bola o‘z ota-onasi bilan qiynalsin” [Xalq maqoli] degan naql bor. Buning ma‘nosi shuki, hech bir bola ota-onasiz qolmasin. Qiynalib bo‘lsayam o‘z ota-onasi tarbiyalab, voyaga yetkazsin. Birovning bolasi boshqa bir o‘gay ota-onaga hech qachon yoqmaydi. O‘z ota-onasi o‘rnini hech qachon bosolmaydi. Hamisha malol keladi, oqibatda bolani xo‘rlab, azob-uqubatlarga duchor etadi. O‘z manfaatlari, nafi, xohish-istaklari va maqsadlari yo‘lida foydalanib, butun hayotini barbod qiladi, degan mazmun o‘z ifodasini topgan.

Lekin boshqa tomondan ham olib qaraydigan bo‘lsak, dunyoda yana shunday toifali ota-onalar ham borki, ba‘zida o‘z ota-onangdek, hatto ulardan-da, yaxshi va ziyodadir. Ibratli ota-ona bo‘lish uchun tug‘ishgan bo‘lishi ba‘zida shart emas. Chunki ota-onalik faqat farzandning tug‘ilishiga vositachi sifatida emas, balki unga bo‘lgan mehr, otalik-onalik hissi, mas‘uliyati bilan o‘lchanadi. O‘gay bo‘lsayam haqiqiy, ikki dunyo saodatini o‘ylagan ota-ona farzandni hech vaqt ajratmaydi. Otasiz, onasizligini, yetimligini har qanday vaziyatda so‘z bilan ham, xatti-harakatlari orqali ham bildirmaydi. Umuman olganda, yetimlik fojiasi ko‘plab qahramonlar uchun sinov, taqdirga tan berib ko‘nikish, sabr hamda matonat uchun berilib, ushbu qismat ba‘zan insonni sindirib, yo‘ldan ozdirishi yoki, aksincha, kuchli, jasoratli qilishi ham mumkin. Bularning hammasi, avvalo, atrofdagi odamlarning, mahallaning, jamiyatning yetimlarga bo‘lgan munosabatiga, ularni qo‘llab-quvvatlashiga, chetlatmasligiga, adolatiga, sabr-toqatiga, tushunchalariga, mehr-muruvvatiga hamda insoniylik qo‘lini chin dildan cho‘zishlariga bog‘liq bo‘ladi. Islom dini g‘oyalariga ko‘ra, sag‘irlar, ya‘ni yetimlarga mehr-shafqatli bo‘lish, ularga g‘amxo‘rlik qilish oliy darajadagi savob, aksincha, ularni xo‘rlash, kamsitish, shuningdek, yetimlar haqqiga xiyonat qilish esa eng og‘ir gunohlardan sanaladi. Mazkur g‘oyalar islom ta‘limotining muqaddas manbalaridan biri bo‘lgan hadislarda ham o‘z ifodasini topgan: “Murra al-Faxriy ibn Amr [roziyollohu anhu] Rasululloh [Salloohu alayhi vassalam]dan rivoyat qiladilar: Rasululloh “Yetim bolaning tarbiyasini o‘z zimmasiga olgan kishi jannatda men bilan shunday yaqin bo‘ladi, – deb o‘rta barmoqlari bilan ikkinchi barmoqlari (ibhomlari)ni ko‘rsatdilar” [Asqarova, 2003: 96]. Bundan ko‘rinib turibdiki, bir yetimning tarbiyasi nafaqat mas‘uliyatli vazifa, balki Alloh oldidagi ulkan savob va jannatli ish hisoblanadi.

Bu yerda adib Nafisani yuqoridagi birinchi holatga tushgan obraz sifatida tasvirlab, asosiy urg‘uni Nafisaning yetimligiga emas, qahramonni ma‘naviy yetim qilgan jamiyatni asosiy aybdor qilib ko‘rsatib, undagi insofsizlik, shoshqaloqlik, mas‘uliyatsizlik hasad, shafqatsizlik va axloqiy zaiflikni qoralashga beradi. Chunki qissada sodir etilgan jinoyatga nisbatan odamlar asl sababni bilib-bilmay, shafqatsizlarcha Nafisani sharmanda, xiyonatkor deb ustidan hukm chiqarib, uni jazoga loyiq ko‘rishadi. Bu yerda yozuvchi jamiyatning o‘zi qonundan ham ilgari sudlovchi ham, jazo beruvchi ham o‘zi bo‘lib qolgan jamiyatdagi odamlarning shafqatsizligini ochishni maqsad qiladi. Murdalar gapirmaydilar.... Ular himoyasiz, ular haqida yomon gapirish oson, shu bilan birga o‘ta nohaqlikdir. Azal-azaldan g‘iybatni, kimnidir qora yoki oq qilishni xush ko‘radigan odamlarga bu imkoniyat ayni muddao sanaladi. Ular o‘lgan odamning sha‘niga istalgan yolg‘onni aytishi va tuhmat toshlarini otib, nomini bulg‘ashi oson kechadi. Bilmaydilar, o‘tganlar ortidan aytilgan har bir yomon so‘z, la‘nat, qarg‘ishlarning kasri ularning o‘zlarini-da, badnom qilishi mumkin ekanligiga aqlari kaltalik qiladi.



Mutafakkirlarning “Madomiki, boshingda o'nlab yaralar bor ekan, avval malhamni o'zingga qo'llashing lozim, o'z kamchiliging uchun o'zingni tergash jon uchun malhamdir, agar u yengilsa, rahm etishga munosib. Agar senda o'sha nuqson bo'lmasa, sen o'zingni bexatar deb bilma, ehtimol, bu qusur senda ham o'zini namoyon etar. Sen Xudoning “Qo'rqmanglar” degan so'zini eshitmay turib, nega o'zingni xavfsiz his etasan va shodlanasan?” [Ikromov va boshqalar, 2023: 12.04], mazmundagi jumalardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, birovdan kamchilik izlab, uni qoralaganlar ko'proq o'zlari adashib yo'ldan ozadi. Insonni ruhiy jihatdan zaiflashtirib boradi. O'zining xatolarini ko'rmay turib, o'zganing kamchiliklarini qoralab, uning ustida muhokama qilish nafaqat o'ziga balki atrofdagilarga ham zarar berib, uni ijtimoiy hayotida salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi, uni ma'naviy jihatdan tubanlashtiradi. Shunday ekan, birovni qoralashdan avval uning hayotida, avvalo, yashab ko'rishi, u bosib o'tgan yo'llarni bosib o'tishi, u boshidan o'tkazgan kechinmalarni his etishi, o'tmishiga bir bora nazar solishi, uning tuyg'ulariga quloq tutishi hamda qalb dardlarini o'qiy olishi uchun insondan juda katta jasorat, insoniylik talab etiladi. Uning bunday vaziyat qurboni bo'lishini undan ayb qidirish, tanqid qilish bilan emas, balki uning sabablarini topib, vaqtida unga to'g'ri yechim bera olish, uni eshita bilish orqali fojeaning oldini olish mumkin. Chunki xato, gunoh qilish bandalariga xosdir, lekin o'sha xatolarni paytida anglab, undan xulosa chiqara olish esa tajribadir. Xudo oldida hammamiz birdek osiy bandalarmiz. Kim uning marhamatga sazovor bo'lishi yoki kimning bundan benasib qolishi, uning yolg'iz o'zigagina ayon.

Undan keyingi o'rinda, muallif so'zi bilan amaliyot mos kelmaydigan jamiyatning eng katta qusurlaridan biri – ikkiyuzlamachilik, soxtakorlikni oshkor etishni maqsad qiladi. Nafisani tirik paytlarida unga qahr-g'azab, nafrat toshlarini yog'dirgan odamlar u o'ldirilgach, o'zlarini xuddi unga achingandek ko'rsatadi. Uning go'yoki taqdiriga, tirnoqqa zor o'tgan bechora ayolligiga, o'limiga chindan qayg'urayotgandek soxta rahm-shafqat bilan aslida kim ekanliklarini namoyon etadi. Afsuski, har qanday vaziyatda ham endi bu soxta qayg'ular befoyda edi, chunki allaqachon g'isht qolipdan ko'chib bo'lgan, afsus-nadomat uchun juda kech edi. O'sha paytlarda fojea yuz bermasdan ilgari kimdir Nafisani ham bir bor eshitib, dardini tinglaganida edi, bunday zulmlar bo'lmas, voqea bunday shaklda tus olmas edi.

Shu bilan birga, keyingi o'rinda muallif jamiyatdagi eng katta qusurlardan biri, ayollarga bo'lgan adolatsiz munosabat, ayol fojeasi kabi masalalar tanqid ostiga olinadi. Jamiyat ayol nomusi haqida gapirib, Nafisani: “Xotinlarga aralashadigan odati y'q edi-ku?..”, “G'arko'z edi bu juvon...”, “Kim o'ldirgan ekan?”, “Eri avval ham bir-ikki ushlab kechirgan ekan, bu safar chidolmabdi, boyaqish...”[Tohir Malik, 2019: 235], degan noma'qul gaplar bilan odamlar unga o'zlarining qarichlari bilan baho beradi. Uni xotinlarga aralashish odati yo'qligi aytilganda, uning xulqi, uncha-muncha xotinlarga qo'shilavermasligi, g'arko'zligi muhokama qilinganda esa u azaldan suyug'oyoq ayolligiga ishora nazarda tutilgan. Mahalladagi xotinlarining uni, aynan, kim o'ldirganligi to'g'risida shubhalari, muhokamalaridan shuni anglashimiz mumkinki, Nafisa o'ynash bo'lib yurganlarning odamlar taxminicha, shunchalar behisob-ki, ular qaysi biri o'ldirib ketganligini bilolmay halak. Insonni ba'zan pichoq emas, atrofdagi odamlarning gap-so'zlari o'ldiradi. Ular Nafisani uyida Sanjar ismli bir erkak bilan bir so'yib ketishganida, bunaqa faxsh va nopok yo'ldan yurishida, bir kun kelib mana shunday balo-yu, ofatga duchor bo'lishi mumkinligini, allaqachon, taxmin qilib bo'lishgan edi. Uning ham sal bo'lsa-da, o'tmishini surishtirish, uning o'ldirilganlik bilan bog'liq jinoyat tarixini o'rganish o'rniga, uni bu kundan battar bo'lsin, bunaqa ayollar o'z boshini o'zi yeyishi, albatta, muqarrarligi haqidagi xayoliy tushunchalari bilan ushbu jarayonga nihoyatda shafqatsiz munosabatda bo'lishadi. Va yana bu yerda eng asosiy muammo, jamiyat faqat ayolning fojeali qismatida erkakni emas, yolg'iz ayolning o'zini nomussizlikda, behayollikda ayblaydi. Xususan, Nafisani eri bir necha bor xiyonatda ustida tutib olganligi, so'ng uni bir necha bor kechirganligi oxiri chidolmaganidan, o'ldirib qo'ya qolganligi to'g'risida shubha-gumonlarga ham borishadi.

Tohir Malik bu yerda juda ham aniq va ayni paytda og'riqli masalani ko'ndalang qo'yadi. Ya'ni jamiyat ayolni aydor qilib, erkakni esa oqlashga harakat qiladi, Nafisa bilan birga



o‘ldirilgan Sanjarni avval pokiza edi, go‘yoki shu suyug‘oyoqqa ilakishdi-yu, yo‘ldan ozdi qabilidagi har xil gaplar bilan uning yuziga butunlay nohaqlikni chaplashadi: “Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan bola edi, bechora. O‘zi pokiza edi, shayton yo‘ldan urgan” [Tohir Malik, 2019: 235]. Lekin jamiyatda erkakning o‘ziga yarasha mas‘uliyatlari, javobgarligi, tashqi muhitning bosimi haqida esa lom-lim deyishmaydi. Aslida haqiqat unday emasdi. O‘sha davr odamlari Nafisaning avval taqdiriga chuqur nazar tashlamasdan, unga sharmanda, nomussiz degan tamg‘ani bosib, undanda ko‘proq gunohni o‘z bo‘yinlariga iladilar. Dunyoda kimnidir aybdor qilishdan oson ish yoq, ammo uni o‘sha ko‘yga tushishiga sababni qidiradigan odam noyob hodisadir. Nafisa ham bu dunyoga mana shunday egri yo‘ldan yuraman, shayton buyurgan ishlarni qilaman, nopok inson bo‘lay, taqdirim shunday bo‘lsin deb kelmagan edi, u ham onadan tug‘ilganida dastlab sut kabi oppoq edi. Uning hayoti bu tarzda salbiy tomonga o‘zgarib ketishida unga, avvalo, hayotda to‘g‘ri yo‘nalish, to‘g‘ri tarbiya berilmaganligi bo‘lsa ikkinchi sababi yetimlik qismatidir. Shavkat Mirziyoyevning yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida ta’kidlaganidek, “Bugungi kunda yurtimizda tobora tarqalib borayotgan “O‘z bolangni o‘zing asra” degan da‘vat faqat quruq shior bo‘lib qolmasdan, har bir ota-ona har bir fuqaroning qalbiga chuqur kirib borishi amaliy harakatga aylanishi zarur. Buning uchun bu masalani, ya’ni ota-onalarning farzandlar tarbiyasi uchun mas‘uliyatini va burchini huquqiy asosda mustahkamlab qo‘yish vaqti keldi,-deb o‘ylayman” [Mirziyoyev 2017: 02.07]. Shu so‘zlarni inobatga olgan holda, oilada yoshlarga chuqur ta’lim-tarbiya berish va ularni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash ham ota-ona zimmasiga yuklatiladi. Shuningdek, ularda huquqiy va estetik madaniyatni tarbiyalash, ularni insonni jaholatga mahkum etuvchi buzg‘unchi g‘oyalarga ergashib ketmasligining oldini olish hamda ular ongi va ruhyatiga sog‘lom tafakkur va axloqiy qadriyatlarni singdirish kabi masalalar nazarda tutilgan.

Asarda voqea shunday keltiriladi: “Bu dunyoda hayot qilko‘prik emas, undan-da xavfli, undan-da battarroqdir. Balki ustara tig‘i ustida yalangoyoq yurishga qiyoslash o‘rinlidir? Ustara tig‘i desakda, qilko‘prik desakda farqsiz – Nafisa bu yo‘lda yura olmadi – toydi. Unga bu yo‘lda qanday yurmoq lozimligini o‘rgatmadilar. Zaharni “asal” dedilar – ishondi, zulmatni “oydinlik” dedilar – ko‘ndi, azobni “rohat” dedilar – ma’qulladi... Sassiqlik ko‘lni mavjli dengiz deb xayol qilib adashganini, oydin yo‘l degani baxt saroyiga emas, do‘zax qopqasiga yetaklaganini kech angladi” [Tohir Malik 2019: 530]. Ushbu jumalardan, bilishimiz mumkinki, Nafisa o‘gay onasi Adolat ta’riflagan darajadagi, ersiragan, yomon toifali ayollardan emasdi. Keyingi paytlarda u ayollar o‘z oilasi haqida gapirganda, hatto turmushlaridagi qiyinchiliklaridan so‘zlaganda ham havasi keladigan, ko‘p bolali, erkak kishi oilaboshi bo‘lgan ro‘zg‘orga ega bo‘lishni xohlab qolgan edi. Puldor, chiroyli erkaklar orzusi endi uning uchun shamolda o‘chgan sham singari yoqlikka yuz tutgan edi. Aslida o‘gay onasi Nafisani mana shunday jarlikka uloqtirgan, uning dadasi Toshbolta sodda, laqmaligi uchun erga tegib olgan edi. Toshbolta esa, uning shahardagi hamma kirdikorlaridan bexabar, o‘qituvchi xalqi yomon bo‘lmaydi, degan xayolda bir jilmayishiga xushtor bo‘lib, uylanadi. Adolat esa traktorhiga tegamanmi, deb nozlanib ham o‘tirmasdan, rozi bo‘lib qo‘ya qoladi, chunki unga nomiga er bo‘lsa, nomini oqlash bo‘lsa, kifoya edi. Yozuvchi uni Toshbolta ishlaydigan cho‘ldagi savxozga “cho‘l quvgani” kelgan Adolatning asl maqsadi “cho‘lquvarlik” emas, balki aslida “erquvarlik” [Tohir Malik, 2019: 392] bo‘lganligini ta’kidlaganida, uning tili, uslubining o‘ziga xosligi namoyon bo‘lish bilan bir qatorda qahramonning individual asl qiyofasi, xarakter-xususiyatlari ham ochiladi.

Adolat Toshboltaga boshida birinchi xotinidan ham a’lo tuyulib, qizini ham qaynonasinikidan birga yashash uchun olib keladi. Vaqt o‘tib uning asl basharasi ochilib, qora kunlari boshlanadi. U yana ketma-ket uchta qiz tug‘ib bergancha, bir navi bo‘lgan Adolat Nafisaning boshiga o‘gaylik qilib, yetimlikning hamma azob-uqubatlarini yog‘diradi. Agar o‘gay ona qanday bo‘lishi, yetimlik nima ekanini Nafisaning hasrat to‘la kitobidan o‘qiganingizda, undan so‘raganingizda edi, u haqidagi badgumon taassurotlaringiz xayolingizni, ehtimol, tark etgan bo‘lard. Yetimlik, yetim bola, o‘gay onalar haqida hikoya, qissalar juda ham ko‘p, ulardagi qahramonlardan Adolat o‘tsa o‘tadiku, ammo aslo qolishmasdi. Nafisani savxoz direktori



Tursunaliga ro‘para qilib, uni nopok ishlarga yo‘llagan va to‘g‘ri yo‘ldan chiqargan ham u bo‘ladi, aslida. Bu borada u makr bobida shaytonni ham dog‘da qoldiradigan ayollikini namoyan etadi. Uning eri Toshbolta aytgan quyidagi so‘zlaridan Nafisani sassiq balchiqqa botirganligining guvohi bo‘lamiz: “Nafisani direktorga qo‘shing-u, keyin Tursunalini sog‘in sigirday sog‘ib yuravering” [Tohir Malik, 2019: 394], – degan gaplariga kirib, o‘gay emas, haqiqiy otasi bo‘lishiga qaramay, Toshbolta o‘z qizining faqat shu yo‘l bilan baxtli bo‘lishiga ishonadi. Haqiqatda esa o‘zining nafsiga shu Nafisani qurbon qilish evaziga taskin bermoqchi bo‘lib, gulday qizning nomusini direktori Tursunaliga hadya qiladi. Boshida hamma narsa Toshbolta, Adolat o‘ylaganidek edi. “Guruchning orqasidan kurmak suv ichibdi” [xalq maqoli], – deganlaridek, turmush tarzi, uylari direktornikidan kam emasdi. O‘zi esa direktorga oshpazlik qilgani uchun, hamma faxsh ishlarning boshida turardi. Lekin oson qo‘lga kiritilgan narsa osonlik bilan qo‘ldan ketadi, ular baxt deb o‘ylagani quyoshli kun aldamchi ko‘rinish kasb etib, Tursunali qamalqach, o‘rmini zulmat egallaydi.

Shu orinda yozuvchhi tarbiya masalasiga ham alohida ahamiyat beradi. Ya‘ni ota-ona tarbiyasi oiladagi muhit ijtimoiy tarbiyaga qaraganda bolaning hissiyotlariga chuqur ta‘sir ko‘rsatishini qissadagi Nafisa orqali kuzatishimiz mumkin. Shunga asoslanib, tarbiya insonning taqdirini hal qiluvchi ijtimoiy-psixologik omil deya aytishimiz mumkin. Taniqli pedagog adibimiz, Abdulla Avloniy o‘zining mashhur bola tarbiyasi haqida quyidagi qarashlari mavjud: “Tarbiya qilguvchilar tabib kabi, tabib xastaning badanidagi kasalga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berub, katta qilmog‘i lozimdur. Zeroki, “Hassinu axloqikom” amri sha‘rifi uzra xulqimizni tuzatmak‘a amr olinganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo‘lishining asosiy panjasi tarbiyadur” [Avloniy, 1992: 3]. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda aytishimiz mumkinki, to‘g‘ri tarbiya insonning asosiy zamini ekanligini e‘tirof etishimiz mumkin. Jumladan, bolaning, ayniqsa, e‘tiborsiz yetimlarning salbiy odatlarga tezda berilib ketishida tarbiyaviy hayotning o‘rni katta sanaladi. Yozuvchhi asardagi yetim Nafisaning ichki kechhinmalarini tahlil qilar ekan, uning baxtiqaroligi, manfaatlar quroliga aylalishishi uning faqat yetimligida emas, aksinchha, ifloslangan jamiyat tomonidan ruhan sindirilganligida va manan oldirilganligida etib belgilaydi.

Toshbolta o‘ylaganidek, bularning hammasiga xotini Adolat aybdor edi. Chunki u faqat boylikni, o‘z manfaatini o‘ylaydigan, yomon xotin va yomon ona. Hattoki eri turolmay, qo‘l-oyoqdan qolganda ham ko‘ziga faqat boylikdan boshqa narsa ko‘rinmaydi. Chunki yuqorida ifoda etganimizdek, Nafisani “asal” deb ishontirgan narsa aslini olganda halokatga boshlovchi dastlabki qadam, “oydinlik” deb tanishtirgani, unga hayotning faqat qorong‘i tomonlarini ko‘rsatib, zulmat eshiklarini ochib berish edi. Umrida ro‘shnolik ko‘rmagan Nafisa esa har qanday azobni rohat deganda, farqlay bilmadi. So‘ng tasavvuridagi mavjli dengiz aslida tor, past, qadr – qimmatli bir muhit ekanligini, u taqdirning shum nayranglariga qattiq aldanganligini tushunib yetdi. Aynan o‘sha oydinlik, baxtga eltuvchi yo‘l deb o‘ylaganlarining hammasi jahannamning naq o‘zi ekanligini bilganida esa bu noto‘g‘ri tanlov, adashish, aldanish, qaltis qadam, tuzatib bo‘lmas xatolik, haqiqatni noto‘g‘ri baholash, eng achinarlisi, kechikkan pushaymonlik va fojea ekanligini his qildi.

Xulosa qilib aytganda, Tohir Malikning “Murdalar gapirmaydilar” qissasi nafaqat dedektiv syujetli, balki chuqur ijtimoiy mazmun kasb etganligi bilan ham har qanday kitobxonning e‘tiborini o‘ziga tortadi. Qissa markazida sodir bo‘lgan jinoyatni ochish jarayoni, shu bilan bir qatorda muallif asar voqealarini yoritib borish davomida har bir kichik jinoyat uchun asos bo‘ladigan oddiy bir faktni ham e‘tiborsiz qoldirmaydi. Jinoyatni keltirib chiqargan asosiy sabablar, berkitilib kelinayotgan jinoyat orqasida turgan insonlardagi loqaydlik, zulm, adolatsizlik, ochko‘zlik, hasad, nafs bilan bog‘liq illatlar inson ruhiy kechinmalari, manfaatlari bilan bilan mushtarak holda ko‘rsatib berilganligini hisobga olsak, ushbu asar faqat dedektivgina emas, o‘zida ijtimoiylikni taqozo etganligi bilan ham ahamiyatlidir. Muallif mana shunday manfaatparastliklar jamiyatni ildizidan kemirishini hamda jinoyat ko‘p hollarda xuddi shu kabi illatlar tufayli yuz berishini aytib o‘tadi.

Qissaning markazidagi obraz Nafisa har bir kitobxonda achinish hissini uyg‘otadi. Uning ixtiyori o‘zining qo‘lida bo‘lganida edi, hech qachon o‘ziga bunday ayanchli hayotni, razolatni ravo ko‘rmagan bo‘lar edi. Ayni damda u vaziyat qurboni bo‘ldi. Uning ham boshqalarga o‘xshab, bu yorug‘ dunyoda orzu-umidlari ko‘p edi. U ham o‘zga ayollar singari bir ro‘zg‘orni obod qilib, sevimli rafiq, yaxshi ona hamda bir oilaning bekasi bo‘lib o‘tirishga u ham haqli edi. Ammo u onasiz yetimligi, ishonuvchanligi, bolaligidan ota-ona mehrining yetishmasligi, e‘tiborga tashnaligi, o‘zgalar taskiniga muhtojligi, ehtiyojmandligi, tajribasizligi tufayli qismatning og‘ir va murakkab sinovlariga duchor bo‘ladi. Natijada atrofidagi odamlarning asl niyatlarini tushunib yetmaganligi uchun mana shunday taqdir zarbalari oldida ojiz qoladi.

Yozuvchi uning taqdiri orqali jamiyatdagi va inson qalbidagi ziddiyatlar, boylikka haddan ortiq darajada ruju qo‘yish, mansab ortidan quvish, manfaatni halollikdan ustun qo‘yish, jamiyatda haqsizlikning, adolatsizlikning avj olib, insoniylikning so‘nishi kabi masalalarni tanqid ostiga oladi. Shu bilan birga, nafs uchun nafaqat vijdonini, balki o‘z farzandining badnom bo‘lishiga sababchi bo‘lgan “ota” maqomidagi razil kimsalar, “ona” maqomidagi beymon ayollar Nafisani o‘z nopok qing‘ir ishlari, nafslari yo‘lida umrini barvaqt xazon qildi. “Nafsiga jilov bermoq – o‘zligini asramoqdir”, - deydi donishmand xalqimiz. Zero, nafsning jilovini qo‘ldan berish, uning nopok xohish-istaklariga asir bo‘lish inson hayotining barcha jabhalariga ham ma‘naviy, ham jismoniy jihatdan katta talafot keltiradi. Aksariyat jamiyatdagi jinoyatlar – o‘g‘rilik, zo‘rovonlik va firibgarlik kabilarning zamirida asli nafsni tiya bilmaslik, moddiy yoki hissiy ehtiyojini qondirish istagi yotadi. Shuningdek, nafsning asiriga aylangan banda, nafaqat yaqinlarini, balki o‘z irodasini ham yo‘qotadi. Bunday holat uni xiyonat, yolg‘on va jinoyat kabi ko‘chalarga osonlikcha yetaklaydi. Avvalo, har qanday buyuk taraqqiyot insonning o‘z nafs ustidan qozongan g‘alabasidan boshlanadi. Shuningdek, har bir insonni qadamini o‘ylab bosishga, hushyor bo‘lishga, ogohlikka, taqdiri uchun muhim qarorlarni avval yaxshilab aql elagidan o‘tkazib, so‘ng qabul qilishga, to‘g‘rilikka undashi bilan tarbiyaviy-axloqiy ahamiyatga ega. Shuning uchun qachonki, yaratilgan har bir ijod mahsuli o‘zida axloqiy-tarbiyaviylikni taqozo etsagina zamon, vaqt tanlamaydi, har bir davr kitobxoni uchun dolzarb bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqarova O‘. M. “Milliy g‘urur tarbiyasi” [Mehribonlik uylari misolida]. – Toshkent, O‘qituvchi, 2003. – 96 b.
2. Mansur A. Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2014. “Fusullat” surasi, 30-oyat.
3. Murdalar gapirmaydilar. Qissalar/ T. Malik. – Toshkent: Sharq, 2019. – 544 b.
4. Odil Ikrom, Oydinniso. “Ma‘naviy masnaviy”dan hikoyatlar. (nasriy bayon), 2023-yil, 12-aprel.
5. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yoshlar ittifoqi” ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqidan 2017-yil 2-iyul.
6. Qur‘oni Karim. Manbalar tarjimasi/Tarj. Alouddin Mansur. – Toshkent, 2004. – 145 b.
7. Rasulova S. Tohir Malik qissalari poetikasi. Filol. Fan. B. Fals. Dok. Diss. – Toshkent, 2025. – 149 b.
8. Shukurov N. Uslublar va janrlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1978. – B. 7.
9. Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 8.
10. www.ziyouz.com.

